

**O‘ZBEKISTON
MILLIY
TELERRADIOKOMPANIYASI**

**«O‘ZBEKISTON 24»
IJODIY BIRLASHMASI»
DAVLAT MUASSASASI**



**NATIONAL TELEVISION
AND RADIO COMPANY
OF UZBEKISTAN**

**STATE INSTITUTION
«O‘ZBEKISTON 24»
CREATIVE ASSOCIATION»**

100027, O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahar, Olmozor ko‘chasi, 2
Tel.: (99871) 214-98-88, 214-98-91
Faks: (99871) 214-98-91
E-mail: uzbekiston24@mtrk.uz
www.mtrk.uz

2, Olmozor street, 100027, Tashkent city, Republic of Uzbekistan
Tel.: (99871) 214-98-88, 214-98-91
Fax: (99871) 214-98-91
E-mail: uzbekiston24@mtrk.uz
www.mtrk.uz

28 noyabr 2025 yil.

05-09-1915-son

Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti Istamova Dilnoza Norboyevnaning 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi ixtisosligi bo’yicha pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan “Raqamli ta’lim sharoitida bo’lajak o’qituvchilarni kiberijtimoiylashtirishning ilmiy-pedagogik asoslari” mavzusidagi dissertatsiya ishi natijalarining amaliyotga joriy etilganligi to’g’risida

MA’LUMOTNOMA

Istamova Dilnoza Norboyevnaning “Raqamli ta’lim sharoitida bo’lajak o’qituvchilarni kiberijtimoiylashtirishning ilmiy-pedagogik asoslari” mavzusidagi dissertatsiyasi doirasida ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston-24” ijodiy birlashmasi “O‘zbekiston” tomonidan tayyorlangan “O‘zbekiston yoshlari”, “Bolalar va biz”, “Ta’lim va taraqqiyot” kabi dasturlar uchun ushbu dissertatsiyada berilgan ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar asosida ssenariylarni ishlab chiqishda (2024-2025-yillarda) foydalanildi.

Xususan:

1. Raqamli ta’lim muhitida bo’lajak o’qituvchilarni kiberijtimoiylashtirish jarayonining psixologik-pedagogik tizimini belgilovchi asosiy omillar (raqamli ijtimoiy o’zaro ta’sir, virtual hamkorlikka tayyorgarlik, raqamli etikadagi kompetensiyalar, raqamli kommunikativ madaniyat) tizimli tahlil qilinib, ular orqali talabalar raqamli ijtimoiylashuvining samarali yo’nalishlari aniqlashtirgan. Bo’lajak o’qituvchilarning raqamli identiteti, ijtimoiy-madaniy transformatsiyasi va virtual muhitda o’z-o’zini ijtimoiy ifodalash kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi kiberijtimoiylashtirish komponentlari (kognitiv, hissiy, kommunikativ va reflektiv) nazariy asosda aniqlanib, ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishdagi o’rni asoslab berilgan va ularni takomillashtirishga doir yo’l-yo’riqlar “O‘zbekiston yoshlari” hamda “Bolalar va biz” dasturlarida keng yoritildi. Ushbu dasturlar orqali raqamli ta’lim sharoitida bo’lajak pedagoglarni kiberijtimoiylashtirish usullariga oid tushunchalar haqida aholiga tushuntirish ishlari olib borildi.

2. Shuningdek, bo’lajak o’qituvchilarni raqamli ta’lim sharoitida kiberijtimoiylashtirishga yo’naltirilgan pedagogik model taklif etilib, uning tarkibiy bloklari

(maqsadli, mazmuniy, texnologik, monitoring va baholash) aniqlashtirilgan modelda shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatga asoslangan va kompetensiyaviy yondashuvlar ustuvorligini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar "Ta'lim va taraqqiyot" hamda "O'zbekiston yoshlari" dasturlarini tayyorlashda qo'llanildi.

3. Raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish kompetensiyalari hamda ta'lim tizimida sun'iy intellektdan foydalanish etikasi va madaniyatini shakllantirish va targ'ib qilish usullaridan "O'zbekiston yoshlari" va "Ta'lim va taraqqiyot" dasturlari mazmunini boyitishda samarali foydalanildi. Natijada, tomoshabinlar va tinglovchilarning talabalar o'rtasida "Kiberijtimoiylashuv", "Raqamli identitet", Immersiv texnologiyalar" tushunchalarini yanada chuqurroq anglash, tushunish va shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy, ilmiy asoslangan va milliy qadriyatlarga uyg'un yangi yondashuvlar haqida xabardorligi oshishiga yordam berdi.

Mazkur ma'lumotnoma ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengashga taqdim etish uchun berildi.

Direktor o'rinbosari



D. Mamaturdiyev